

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SAMARALI O‘QISH KO‘NIKMALARINI  
SHAKLLANTIRISH.**

Muxlisaxon Abdujalilova  
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi  
Abdukarimova Zaxro  
Qo‘qon davlat pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yoshligidan boshlab samarali o‘qish tizimini shakllantirish va ularni yo‘naltirish haqida so‘z yuritamiz. Agar yoshlarning kelajagini o‘ylaydigan bo‘lsak bugundan boshlab ularni, avvalo, ta’lim sohasiga qiziqtirish lozim.O‘quvchining o‘qish qobiliyatini aniqlashimiz va o‘zi qiziqqan sohaga boshlashimiz zarur. Bola yoshligidan bilimga layoqatli bo‘lsa, aqliy komil va axloqiy barkamol bo‘lib tarbiyalanadi.

**Kalit so‘zlar:** Samarali o‘qish, chet el tajribalari, rivojlangan mamlakatlar, pedagogik metodlar, bolalar psixologiyasi, foydali adabiyotlar, izohli o‘qish, kelajak-maqsad, nutqni rivojlantirish.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan darslar yuqori sinflarda o‘tiladigan fanlarning bevosita tarkibiy qismi hisoblanadi. Bola boshlang‘ich sinfda qancha mustahkam bilimga ega bo‘lsa, nafaqat yuqori sinfda, balki, kelajakda ham to‘siqlarga uchramaydi. Kattalar aytishganidek:”Yoshlikdagi bilim kelajak uchun poydevor bo‘ladi.”O‘quvchi dars davomida qanchalik diqqatli va e’tiborli bo‘lsa, bilimlarni puxta egallaydi, to‘g‘ri va ravon nutq soxibi bo‘ladi.Pedagog o‘quvchilarga mustahkam bilim berish bilan birgalikda, ona Vatan va milliy istiqlol g‘oyalarin ularning ongiga singdirishi lozim.

Endi aynan boshlang‘ich sinflarda samarali o‘qishni shakllantirish masalasini ko‘rib chiqsak. Buni pedagoglar turlicha talqin qilishadi. Avvalo, bolaning psixologiyasini o‘rganish lozim. Chunki shunday samarali tizimlar borki ular murakkab bo‘lganligi bois, bolaning psixikasi ko‘tara olmasligi mumkin.Albatta bu jihatlarini ham hisobga olib ish qilish maqsadga muvofiq.Insin psixikasi yoshiga nisbatan ancha yaxshi rivojlangan bo‘lishi mumkin, bu bolalikda ham kuzatiladi.Ya’ni bola yoshligidan o‘qish nima ekanligi, nima uchun o‘qiyotganligi, o‘qisa nimalarga erishishi mumkinligini tushinib yetgan bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar bilan yaxshiroq va qattiqroq shug‘illanish va aksincha o‘quvchilar bilan esa bilimga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirib qo‘ymasdan sekinlik bilan mashqlar olib borish kerak.

Biz bilamizki boshlang‘ich sinflar jamiyatda shaxs bo‘lib yetishishida ustozni va ota-onasi asosiy rol o‘ynaydi. Bolaning asosiy poydevorini ustoz qo‘yadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi darsni oldindan rejalashtirishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishni yo‘lga qo‘yishi lozim.Bunday harakatlar bolaning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi va kelajakka to‘g‘ri maqsad qo‘yishni o‘rgatadi,albatta.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida samarali o‘qish tizimini shakllantirish va unga o‘rgatishni quyidagi bosqichlarda ko‘rib chiqsak:

-Avvalo, ularda bilimga muxabbat uyg‘otishimiz zarur.Qachonki bilim ixlos bilan o‘rganilsa o‘z mevasini beradi;

-O'qituvchining rangli va interfaol metodlardan keng foydalanishi natijasida bolada qiziqish kuchayadi.Boshlangich sinf o'quvchilarining psixikasi shunday bo'ladiki, bola ko'rgan narsasini eslab qolishi 85% ni o'z ichiga oladi. Nazariy bilimdan ko'ra bola amaliy va ko'rgan narsasini eslab qolishi samarali hisoblanadi;

-O'quvchilarga reja tuzishni o'ragtish lozim. Bola reja asosida har qanday ishni tashkillashi lozim bo'ladi.Masalan kunini reja asosida o'tkazishni o'rganishi mumkin. To'g'ri,boshlang'ich sinflarda bu ozroq murakkab jarayon bo'lishi mumkin,lekin ko'nikma shakllantirib turish mumkin;

-O'quvchilarning ongida to'g'ri tushunchalarni shakllantirishimiz zarur. Masalan bolalar o'yamasinki,inson tanasi energiyani ovqat va uyqudan oladi deb. Aksincha inson qachonki manaviy ongini boyitsa energiyaga to'ladi.Shu bilan birga manaviy ongni yuksaltirish mashqlarni ham o'rgatib o'tish joiz hisoblanadi;

-O'quvchilarga eng qimmatli narsa vaqt ekanini tushuntirish lozim. Shu bilan birgalikda vaqtini to'g'ri taqsimlashni ham o'rgatmoq kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinqaroq bo'ladi. Ba'zi bolalar o'yinga berilib dars qilishn unutib qo'yishadi.Shunday hollarda vaqtlarini to'g'ri va sifatli sarf qilishni yo'lga qo'yishimiz darkor;

-O'quvchilarda kitobga muxabbat uyg'otish.Bizning eng sodiq do'stimiz kitob ekanligini tushuntirishmiz.Yoshligidan kitob mutolasiga o'rgatishimiz kerak. Muvaqqiyatli insonlar kuniga ma'lum miqdordan kitib o'qishni kun tartiblariga kiritishad.Chunki kitib o'qigan shaxsning fikrashi,dunyoqarashi keng bo'ladi;

-Natija ko'rsatishda va lider bo'lishga harakat qilishda to'g'ri yo'lga boshlay olshimiz kerak.Qachonki biz bolaga ishonch bersak, unda lider bo'lishga hissiyot uyg'onadi. Lider bo'lgan bola esa, eng yuksak marralarni zabit etadi va natija qila oladi;

-Bolaning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasbga yo'naltirishmiz lozim.Yani maqsad qo'yishni o'rgatish darkor.Avval kichik-kichik maqsadlardan boshlaymiz va harakatga undaymiz. Maqsad kichik bo'lsada, unga erishgandan so'ng bolada motivatsiya uyg'onadi va katta maqsadlar qo'yishga, unga erishishga harakat boshlaydi.Kelajak-maqsadlar bolaning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishini ta'minlaydi;

-Yana shuni ham aytib o'tish kerakki, inson jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun jamiyat a'zolariga erkin fikrini yetkazib bera olishi kerak.Shuning uchun ham bolaning og'zaki nutqini yoshligidan boshlab rivojlantirish lozim.Nutq qanchalk ravon va tekis bo'lsa, fikr tiniq, tushunarli bo'ladi;

Boshlang'ich sinflarda samarali o'qish tizimin shakllantirishni chet el tajribalarida ham ko'rishimiz mumkin. Rivojlangan mamlakatlar asosiy e'tiborni aynan boshlang'ich ta'limga qaratadi. Masalan Koreya ta'lim tizimida asosiy urg'u boshlang'ich ta'limga qaratiladi.Bunda o'qish-o'rganish va kundalik hayot uchun zarur bo'ladigan asosiy odatlar, fundamental qobiliyatlarini o'stirishga va to'g'ri xarakterlarni rivojlantirishga qaratiladi.Qisqa qilib aytganda hayotga bo'lgan birinchi tushunchalarni o'rgatadi.Yani bolalar yaxshi yashash odatlari, hayotiy hikmatlari va hakozolar kabi asosiy hayot omillari va qobiliyatlarini o'rganishadi.Bolalarga boshlang'ich sinflarda yaxshi talim olishlari uchun sharoitlar noodati tarzda yaratilgan.Yani 3 xil sharoit yaratilgan:

1.Bolalar gilamlarda o'tirib dars qilishlari mumkin. Bu o'quvchilarda darsga bo'lgan ishtiyoqni orttiradi.

2.Bolalar stol va partalarda dars qilishadi. Bu matematika, koreys tili va tasviriy san'at fanlarida ko`proq qo'l keladi.

3.Bolalar 5 minut mizg`ib olishlari uchun yotoqlar yaratilgan, yani boshlang`ich sinf o`quvchlariga vaqt-i vaqt bilan dam berib turilshi bilimlarni yanada yaxshi o`zlashtirishga ko`mak beradi.

Koreya ta`lim tizimida bolalarning erta uyg`oishi ham nazoratga olinar ekan. Ularga muvafqqiyatlari insonlar erta uyg`onishlari haqida ma`lumot beriladi va bunday shaxslarning biografiyalari haqida tanishtirib boriladi.

Koreyada bolalar sog`lgi birinchi o`rinda turadi.Maktablarda har kuni badan tarbiya mashg`ulotlari bo`ladi.Buning natijasida o`quvchilarda qon aylanishi yaxshilanadi, miya faoliyati barqarorlashadi va ,albatta, bilim olishda ijobi natijaga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang`ich sinflarda o`qitiladigan eng muxim predmetlardan biri o`qishdir. Ta`kidlash joizki, o`qish o`z samarasini berish uchun tizimlashgan bo`lishi kerak. Samaraga erishish har doim qiyin bo`lgan. Ammo bu qiyinchilikni yengish mumki faqat yoshlikdan harakat qilish zarur.Yoshlikdan harakat qilinsa, mushkullar hech narsaday tuyiladi. Muximi, harakatdan to`xtamaslkdir.Vaqt faqat hozir bor, shunday ekan puxta bilimlarga ega bo`lish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. "Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" Toshkent. "Sharq yulduzi" 2009 yil №3
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent. "Ma'naviyat" 2008 yil
3. Nazarov B "Anvar Obidjon she'rlarida poetik go'zallik" [www.saviya.uz](http://www.saviya.uz)
4. Jumaboyev M "Bolalar adabiyoti" Toshkent "O'qituvchi" 2013 yil
5. Shomurotov, S. S. O. (2021). The Need for Formation of Knowledge on the Effective Use of Water Resources in Young People in the Process of Globalization. (in the Example of the Aral Sea). *International Journal of Human Computing Studies*, 3(2), 89-91.
6. SHOMUROTOV, S. S. O. (2021, April). FIRST STEPS FOR MODERNIZATION OF WATER FARMING IN THE REPUBLIC: ACHIEVEMENTS AND CHALLENGES. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 4, No. 1, pp. 152-155).
7. Shomurotov, S. S. O. (2021, February). Some Environmental Problems Related To Land And Water Resources In Uzbekistan. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 39-41).
8. SHOMUROTOV, S. S. O. Construction and Changes in Canals and Pumping Stations in Uzbekistan. *JournalNX*, 7(1), 262-266.
9. Шомуротов, Ш. (2021). Историческое значение реформ, осуществляемых в водной системе Узбекистана. *Общество и инновации*, 2(3/S), 458-465.
10. Шомуротов, Ш. (2021). Ўзбекистон сув хўжалиги тизимида амалга оширилган ислоҳотларнинг тарихий аҳамияти. *Общество и инновации*, 2(3/S), 458-465.

11. Shomurotov, S. S. O. (2022). O ‘Zbekistonda Suvdan Foydalanuvchilar Uyushmalarining Tashkil Qilinishi Va Faoliyatida Yuzaga Kelayotgan Muammolari. *Miasto Przyszlosci*, 29, 216-220.

12. Shomurotov, S. S. O. (2022). Measures Taken to Develop the Irrigation System in the Country. *Miasto Przyszlosci*, 29, 207-209.